

ONA TILI DARSLARIDA TINISH BELGILARI BILAN ISHLASH

O'rolova Aziza

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat ona tili va adabiyoti universiteti
3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ona tili darslarida tinish belgilarga doir bilimlarni shakillantirish, tinish belgilarining qoidalari, ona tili darslarida berilgan tinish belgilarga oid mashqlar ustida ishlash usullari, tinish belgilari o‘z vazifalari va qo‘llanishi va mакtab darsliklarida tinish belgilarining ishlatalishiga oid mashq materiallari bilan tanishish haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: Ona tili, dars, tinish belgi, bilim, shakl, qoida, mashq.

АННОТАЦИЯ: В данной статье формируется знание о пунктуации на уроках родного языка. Написано о правилах пунктуации, о том, как работать над пунктуационными упражнениями, проводимыми на уроках родного языка, о назначении и использовании знаков препинания, а также ознакомление с материалами упражнений по использованию знаков препинания в школьных учебниках.

Ключевые слова: Родной язык, урок, пунктуация, знания, форма, правило, упражнение.

ABSTRACT: In this article, formation of knowledge about punctuation marks in mother tongue classes. It is written about the rules of punctuation, how to work on punctuation exercises given in native language classes, the purpose and use of punctuation marks, and familiarization with exercise materials on the use of punctuation marks in school textbooks.

Keywords: Mother tongue, lesson, punctuation, knowledge, form, rule, exercise.

Dastlabki 5-6- sinfdanoq ona tili darslariga taaluqli ko‘pgina masalalar boshlang‘ich sinflardayoq shu darajada mustahkam o‘zlashtirilishi kerak. Bunda o‘zlashtirilgan bilimlar o‘quvchilar ongida butun umrga saqlanib qolishi va boshqa

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

masalalar esa o'qitishning bosqichida keying sinflarda muttasil qarab chiqishga tayyorgarlik ko'rish maqsadidagina kiritiladi yoki biror malaka va ko'nikmalarni shakillantirish jarayonida fikrlash qobilyati darajasini oshirish imkonyatiga ega bo'lish uchun kiritiladi. Shu jumladan tinish belgilari ham ona tili darslarida muhim ahamiyatga ega vositalar hisoblanadi.

Tinish belgilari yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqiy bayon qilishda, uni ixchamlashda gap qismlarining o'zaro logik- gramatik munosabatlarini ko'rsatishda muhim grafik vosita sifatida ishlataladi. Punktuatsiya, bir tomonidan, yozuvchiga o'z yozma nutqni aniq, to'g'ri va ifodali bayon etish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomonidan, o'quvchiga muayyan matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek, yozuvchining maqsadiga muvofiq tushuna olish imkoniyatini yaratadi; bir tinish belgi yozuvchi tomonidan qanday ma'no va vazifada qo'llangan bo'lsa, mazkur tinish belgi o'quvchi tomonidan ham xuddi shunday vazifada tushuniladi.

Demak, tinish belgilari "Yozma nutqning tushunilishini osonlashtirish uchun qo'llanadi" va uni oydinlashtiradi, anqlik kiritadi. Tinish belgini to'g'ri qo'llamaslik ma'lum bir sintaktik qurilmani ham mazmun, ham tuzilish jihatdan o'zgarib ketishiga olib keladi. Tinish belgilari yozuvdan keyin paydo bo'lgan.

Kichkina sinfligida o'quvchilarga to'rtta tinish belgi o'rgatiladi. Kichkina sinf darsliklarida tinish belgilari kam bo'lishiga qaramay, o'qtuvchi har bir sinfda tinsh belgilari ustida muntazam ish olib borishi zarur.

Ona tilidan bilim samaradorligini oshirish o'quvchilar ongini rivojlantiradi, fikrlash qobilyatini o'stiradi, dadil fikr-mulohazalar aytishga chorlaydi. O'z fikrini aytish, yozish uchun imkonyat yaratadi. Kelajakda ilmiy salohiyatga erishish uchun keng yo'l oolib beradi. Ona tili darslarida tinsh belgilarni o'rgatish orqali og'zaki va yozma, nutq boyligini oshirish, imlo qoidalariga, DTS talablariga javob boradigan, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish hamda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdan iborat. O'quvchilarga tinish belgilarini o'rgatish orqali ular nutqini va imlo qoidalarini o'stirish o'quvchilarning o'zlariga ona tili faniga oid topshiriqlar yaratish ko'nikmalarini shakillantirishga yordam beradi. Biz bilamizki maktab yoshidagi bolalar faoliyatida o'yin birinchi o'rinda turadi. Shuning uchun

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o‘qtuvchidan berilayotgan topshiriqlarni o‘yinlar ko‘rinishida tashkillashtirish orqali bo‘lsa ham bolaga biron narsani o‘rgatish talabi qo‘yiladi. Shu jihatdan qaraganda, ta’lim jarayonida qo‘llanadigan didaktik o‘yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o‘yinlar ta’lim jarayoni samaradorligini oshiradi ta’lim jarayonida o‘quvchilar faolligini o‘qish motivlarini rivojlantiradi.

1- Topshiriq. Quyida berilgan so‘zlar asosida gaplar tuzing va bu gaplarga mos tinish belgilarini tanlang.

So‘zlar; Kitobga muhabbat, shoirlik sari qadam, bolalik orzulari, havoskor shoir, kitob-bilim bulog‘i, ilk ustozim.

O‘yin va amaliy mashg‘ulotlar yordamida o‘quvchilar tinish belgilarini qiziqarli va esda qolarli shakilda o‘rganadilar. Bu usul bolalarda darsga nisbatan qiziqish uyg‘otadi, bilim olish jarayonini jonlantiradi va ularda mustahkam ko‘nikmalarini shakillantiradi.

Savodxonlikni oshirish va tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalarini shakillantirish uchun zamonaviy texnologiyalar samarali vosita hisoblanadi. Texnologiyalar yordamida o‘quvchilar uchun visual, qiziqarli va interaktiv dars muhitini yaratish mumkin, bu esa bolalarning bilim olish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

2- Topshiriq. Maqollardagi tinish belgilarining qo‘llanishi.

Jadvalda berilgan so‘zlarda tinish belgilar tushirib qoldirilgan, maqollarni o‘qing va tinish belgilarni to‘g‘ri joylashtiring.

Baliq suv bilan	Bulbul chamanni sevar
Odam el bilan	Odam Vatanni
Betkay ketar bel qolar	Bulbulga bog‘ yaxshi
Beklar ketar bek qolar	Kaklikka tog‘
Begona tuproq devona tuproq	Vatan gadosi kafan gadosi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

3- Topshiriq. Qayta yozish topshirig'i . Berilgan matnda kerakli tinish belgilari tushirib qoldirilgan bo'lib matnni o'qib chiqib kerakli o'rirlarga mos tinish belgilarni joylashtiring.

Mashq va topshiriqlar o'quvchilarining tinish belgilarini amalda qo'llashni o'zlashtirishlariga yordam beradi. Bu usul yordamida ular matn mazmunini to'liq anglashga va fikrlarini aniq bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Matn

Boshi berk ko'cha degan iborani ko'p eshitgansiz Bu kirish joyi bo'lib chiqish joyi

yopiq ko'chaga aytildi. Bilasizmi inson organizmida ham shunday a'zo bor U appendiks deb ataladi.

Qornimizning ichida yo'g'on ichak degan qazi yoki kolbasaga o'xshab ketadigan a'zo bo'lib uning boshlanish qismi ko'richak deb ataladi Appendiks esa ko'richakka ulangan uzunligi 5–10 cm keladigan chuvalchangsimon a'zo Appendiksning og'rib qolishi esa appenditsit kasalligi deyiladi Demak Ko'richagimni oldirib tashladim degan gap noto'g'ri Odam ko'richaksiz yashay olmaydi Shifokorlar faqat ko'richakka ulangan jajji

appendiksni olib tashlaydilar xolos Appendiksni kichkina xaltachaga o'xshatish mumkin Uning ichida turli bakteriyalar yig'iladi Olimlar uzoq yillar davomida appendiksni odam uchun keraksiz a'zo deb hisoblashgan Hatto Germaniyada yangi tug'ilgan bolaning appendiksi jarrohlik yo'li bilan olib tashlangan Ammo 2007-yilda amerikalik olimlar appendiks juda muhim kerakli a'zo ekanini isbotlashdi Bu jajji xaltachaning ichida immun tizimining foydali bakteriyalardan

iborat katta qo'shini uqlab yotadi Agar yo'g'on ichakda zararli bakteriyalar ko'payib qorningiz og'rib qolsa va immun qo'shini ularni yenga olmasa appendiks ichidagi zaxira qo'shini yordamga keladi

Qo'llanilgan tinish belgilarini nima sababdan qo'llaganizni izohlab bering.

Quyida berilgan topshiriq 6- sinf "Ona tili" darsligi asosida yaratilgan bo'lib, ya'ni matni qayta o'qib tushunish va undagi voqealar bayoniga qarab tinish

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

belgilarni to‘g‘ri joylashtish kerak bo‘ladi. Bu kabi topshiriqlar ona tili faniga qo‘yilgan 4ta talablardan 3 tasiga mos tushadi, ya’ni matndagi tinsh belgilarini olib tashlab vizual holatda o‘qib tushunish o‘quvchida o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakillantiradi. Ikkinchisi esa matni ifodali o‘qishga qo‘yib audio holatida eshitish orqali tinish belgilarini aniqlash tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Uchunchisi esa yozma savodxonlikni aniqlash maqsadida bunaqa topshiriqlar o‘quvchilarga berilishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki ona tili darsliklarida berilayotgan topshiriqlarning har biri ma’lum bir ko‘nikmani shakillantirishga qaratilgan hisoblanadi. O‘qtuvchidan esa ana shu masulyatli ishni bo‘yniga olib o‘quvchilarga qay usul va metodlarda bo‘lmasin to‘liq va to‘g‘ri yetkaza bilish talab qilinadi.

Yuqorida berib o‘tilgan topshiriqlarning barchasi 6- sinf ona tili darsi bo‘yicha berilgan topshiriqlar asosida yaratildi. Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi 281-maktab 6-sinf o‘quvchilari orasida sinovdan o ‘tkazilni juda yaxshi natijalar kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek tilida punktuatsiya. – Toshkent: O‘zFAN, 1951.
2. Ona tili o‘qitish metodikasi. (Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik): |K. Qosimova|, S.Matchonov, X. G’ulomova, Sh. Yo’ldosheva, Sh. Sariyev. — T.: «NOSHIR», - 2009. 352 b.
3. Mambetnazarova Gozzal, Shabatova Rabig‘a. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tinish belgilarining qo‘llanishini o‘rgatish. Internetnet maqola. newjournal.org
4. Bahriiddinova B. Zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent: «Akademnashr», 2015.
5. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. –Toshkent: “Fan” , 1990.